



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

O‘Z DUNYO QARASHLARINI EKRANGA KO‘CHIRA OLGAN IJODKOR

Ravshonbekova Roziyaxon

O‘zDSMI, “San’at jurnalistikasi” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada rejissura san’atiga salmog‘li hissasini qo‘shib kelayotgan Yolqin To‘ychiyevning “O‘tov”, “Chashma”, “Evrilish” filmlari haqida ma‘lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Yolqin to‘ychiyev, rejissura, film, ssenariy, kinolenta, kino.

Аннотация

В данной статье представлена информация о фильмах "Отов," "Чашма" и "Эврилиш" режиссёра Ёлкина Туйчиева, который вносит значительный вклад в искусство режиссуры.

Ключевые слова: Ёлкин Туйчиев, режиссер, фильм, сценарий, кадры фильма, фильм.

Abstract.

This article provides information about Yolqin To'ychiyev's films "O'tov," "Chashma," and "Evrilish," which have made significant contributions to the art of directing.

Keywords: Yolqin To'ychiyev, director, film, screenplay, film footage, film.

Yolqin To‘ychiyev o‘zbek kinematografiyasiga salmog‘li xissa qo‘shib kelayotgan ijodkorlardan biri . Faoliyatini Abdulla Qodiriy asari asosida «Oq oppoq qora laylak» spektaklini sahnalashtirishdan boshlagani barchamizga ma‘lum. Yolqin To‘ychiyev xalqimizning ko‘nglidan joy oladigan filmlar rejissyori va ajoyib ssenariylar muallifi. Rejissyor bakalavrni “Toshkent san’at oliygohining rejissura



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

fakultetini” (hozirgi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutini) tugatgach, keyinchalik, Moskva shahriga ssenariy va kinorejissorlari oliy kursi (SROK) 2002-yil yangi tajribalar bilan o‘qishni tugatgach, 2003-yil Ayub Shaxobiddinov bilan birgalikda ilk debyut ishini ya’ni, Yoqub Gulievning «Qorda qolgan lola» romani asosida film suratga oladi. Bu asar Yolqin To‘ychiyevni nafaqat rejissyor balkim, ssenariynavis sifatida ijodkorlar orasida nom chiqarishiga sababchi bo‘ladi. Film muaffaqiyatli suratga olingach eng yaxshilar ketma ketligi boshlanadi.

«Orzu ortida» 2005-yil, «Chachma» 2006-yil.

Chashma- ko‘plab mukofotlarni qo‘lga kiritgan hamda Yolqin To‘ychiyevning rejissurasiga muhabbat uyg‘otgan film.

Filmda bosh qahramon deyarli gapirmaydi. Qahramonning ismi Orzibibi bo‘lib film davomida insonlarni va ular bilan roy berayotgan voqealarni shunchaki kuzatadi va faxmlaydi. Insonlar doim kimnidir ishiga aralashadi. Lekin hech kimda samimiylik yo‘q. Hamma dardini to‘kib soladiyu eshtish qo‘lidan kemaydi. Hayotimiz yolg‘on qo‘rquv bo‘xtondan iborat. Kimnidir aldagani yetmagandek o‘zini aldab shu yo‘lg‘onlaridan baxtni qidiradi. Bu achchiq xaqiqatlarni ko‘tara olmaydi.

Meni fikrimcha rejissior ham o‘zi his qilgan ko‘plab firog‘ni ko‘rsatishga qaror qilgandek. Bu filmda tasvirlangan insonlar ayni hozirda ham bundan besh karra tubanlik sari og‘imoqda.

U suratga olgan har bir filmda o‘zgacha dunyo bor, ya’ni hamma bilgan, lekin e’tibor bermagan olamni qorong‘u tarafani ko‘ra biladi. Nafaqqat, bu filmida balki, har bir ijodni ko‘rarkanmiz biz ilg‘amaydigan yanada yangi jabxalarini ko‘ramiz. 2007- yil ekran yuzini ko‘rgan “O‘tov” film nomidan insonni o‘ziga jalb qiladi. Film boshi qandaydir tushunarsiz ko‘rinishi mumkin. “Chashma”dan farq qilardi. Siyosatdan norozi va bobosi hamda otasining o‘limiga aybdor bo‘lgan davlatidagi noxaqlik hamda hayotni qanchalik yaxshiy qotilligini bilgan ziyolilar naslidan chiqqan Ubaydullo qahramonini ko‘ramiz. Nima uchun u qanchalik bilim egasi bo‘lsada, qir makondan uy topgani meni qiziqtirib qo‘ydi. Insonlardan uzoqlashish baxtli hamda uzoq yashashning kafolati deb, bilgan Ubaydullo yolg‘iz farzandi Javohirni tashqi dunyodan qanchalik asrab avaylamasin, shum taqdir unga zarba



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

bermasdan qolmaydi. Farzandini yonidan jilmasligini uni tashqi dunyodan uzib qo'ygan ota qayerida xato qilganini ko'p o'yladim va shu tushunib yetdim Inson qanchalik ilm egasi bo'lmasin uni hayoti davomida qo'llay olishini yagona kaliti tarbiyada. Otasi unga tarbiya berishni eplay olmaydi. Uni hamma narsadan uzoq saqlasam tinch va baxtli hayot kechiradi deb fikr yuritgani xato edi aslida. Qo'rqqoq xuddiki uy hayvonidan farq qilmaydigan tarzda voyaga yetgan farzand otasini o'z yo'liga to'g'anoq inson sifatida ko'rishni boshlaydi. Ubaydullo qurgan devor aslida farzandiga to'sqinlik qilish uchun emas, balki himoya qilish uchunligini tushuntirganida bu hayot uni tubsizlikga tortish o'rniga kamolotga yetkazgan bo'larmidi. ?

Film jarayonida qalbimni jumbushga olgan yana bir narsa musiqa yordamida qahramonlarning his tuyg'ulari mohirona ko'rsatilganligidan bo'ldi. Otasidan qattiq arazlagan Javohirning otash saxnalarida vohaning musiqa asbobida qaxrni aks ettirishga yordam bergani alohida takidlashga loyiq. Bu ham rejissuraviy qoyilmaqom yondashish aslida. Film nima uchun bunday suratga olinganligi menga haligacha qiziq.

Bizni o'rab turgan bu tevarak jahon bu darajada tubanli hamda achinarli ekanligi nimaga zamonlar oshsada to'xtatmagan. Naxotki rejissyorning yechimi farzandini o'tovdan chiqarmaslik bo'lsa.

Boshqacha talqin qilishi mumkin edi-ku, yani armiyadan kelgan paytida otasidan kechirim so'rashi yoki dunyo u o'ylagan darajada xatarli emas insonlar qidirgan narsasini topishi muqarrarlighi yaxshilik izlaganda porloq kelajak qilmish qidirmish ekanligi ochilishi kerak emasmidi. Chunki ko'plab asar, rivoyat kinofilmlar so'ngi shunaqa tugasmidi?

Yolqin To'ychiyev boshqa rejissyorlardan farqi balki, uning O'TOVni Vatan qilish bo'lgandir. Bunisi menga nomalum...

Har ikkala filmni ko'rarkanman faqat o'zim bilan baxs qildim va yechim izladim. Yana ijod yo'liga to'xtaladigan bo'lsam...

Rejissior 2008-yil "Sukunat" nomli filmini namoyish etadi. Yaratilgan har bir kinokartina festivallarni to'ldirib joy egallab kelgan. Lekin bunaqa natijani ko'rsatmagan bo'lsada, kinolenta xalqning yuragidan joy oladi. Kinokartinada



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

Yolqin To‘ychiyev nafaqat rejissyor, ssenariynavis balkim, operatorning ishiga ham alohida e‘tibor qaratganligi namoyon bo‘ladi.

Shundan keyin yanada kuchli filmlar ekran yuzini ko‘ra boshlaydi. “Ilova” bir vaqtning o‘zida 3 ta mukofotga ega bo‘ladi. Fransiyaning Vezul shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo kinosi xalqaro festivalida Oltin velosiped (Cyclo d'Or), NETPAC (Osiyo kinosini ommalashtirish tarmog‘i) va Emil Gime nomidan ta'sis etilgan Gime muzeyi mukofotini qo‘lga kiritdi.

Bir paytning o‘zida ushbu kinokartina “Oltin Gepard” xalqaro kinoforumida “Eng yaxshi aktyor” nominatsiyasini ham egallaydi. Bosh rol egasi Nozim To‘laxo‘jayev mukofotni qo‘lga kiritadi.

Endi rejissyorning yaqin yillar bizga taqdim etgan asarlari haqida aytib o‘tsam. 2022-yil “Evrilish” kinokartina namoyish qilinadi. Nega “Evrilish” chunki filmda urush mavzusi yoritilgan hamda Rustam ismli qahramonning hayoti aks etgan. Urush bu nafaqat insonlarni xayotini do‘zaxga aylantiradi .

Bu safar Yolqin To‘ychiyev o‘z uslubidan uzoqlashmagan holda qahramonning hayotini dushman va do‘stni oldindan ajratib bo‘lmaydigan muhitga tushishi orqali ko‘rsatib beradi. Shu orqali film nomi ham yuzaga keladi “Evrilish” ya’ni nafaqat tashqi ma’noda balkim, insonning ruhiyati bilan ham bog‘liq metomorfoza (Metomorfosa-bir holatdan boshqasiga o‘tish).

Filmda yaxshi yomon tarafning anig‘i ko‘rsatilmaydi. Filmda urushning inson ruhiyati bilan bo‘lgan yomon tarafini ko‘ramiz yani bu yerda qurbon qilingan yagona narsa bu inson va uning ruhiyatidir. Qahramonning ichki kechinmalari xuddiki, biznikidek tuyuladi, bu bo‘lsa tomoshabinni kartina ichida yashash imkonini beradi. Davomida bo‘lsa harakatlar orqali sababni bilishga intilamiz.

Qoyilmaqom ijod asari desam, adashmayman. Dunyo miqqiyosida tan olingan film. Pusan shahridagi kinofestivalda “Kim Jeseok Awan” (bu Osiyo kinosini rivojlantirishga kata hissa qo‘shgan Kim Ji-seok nomiga atalgan mukofot) nominatsiyasiga ega bo‘ladi.

Rejissior o‘zi kim?

Bu oddiy film yoki spektakl sahnalashtiruvchi, boshqaruvchi emas, balki u hayotning ma’nosini obrazlar orqali ko‘rsatuvchi faylasufdir. U voqealarni shunchaki ko‘rsatmaydi, balki inson ruhining ichki harakatini, hammaga ham



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th October, 2025

bilinmaydigan qatlamini ko‘rishga majbur qiladi. Rejjisior uchun har bir kadr- fikr, sahna bo‘lsa – savol, jimlik- javobdir. U haqiqatni so‘zlar yordamida bildirgandan tasvirda ko‘rsatishni avzal biladi. Yolqin To‘ychiyev ham anashunday rejissiorlardan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Yolqin To‘ychiyev. Rejissyor sha’niga ikki ming tahsin bitilgan qo‘shiq“ 2023-yil 3-aprel sonidagi maqolasidan.
2. “Chashma” (2006)filmidan
3. “O‘tov” (2007) filmidan
4. “Evrilish” (2022) filmidan